



Kasb turlari haqida fikringizni ayting.

Kasblar orasida eng muhimi qaysi kasb deb o'ylaysiz?



Opa-singillar

Madina va Maftuna ismli qizaloqlar bor bo'lib, ular juda qiziquivchan opa-singil edilar. Har kuni qizlar ota-onalariga juda ko'p savollar berishar, ular esa qizlarining savollariga javob berishga ulgurishmas edi.

Shunday bo'lsa-da, savollarning keti uzilmasdi:

- Nima sababdan?
- Nimaga?

Shunday qilib, bir kuni qizlar hovliga, undan ko'chaga chiqib o'ynashdi. Madina cho'ntagidan konfet olib, qog'ozini ochdi-da, tezda og'ziga soldi va konfetning qog'ozini yerga tashladi. Konfetining bittasini Maftunaga berdi. Qizlar xush kayfiyatda o'yinni davom ettirmoqchi bo'lishdi, biroq ularni kuzatib turgan qariya attang qilgancha boshini chayqadi va ulardan so'radi:



- Sizlar kimning qizisiz? Ko‘chani iflos qilyapsiz-ku, bu ishingiz to‘g‘rimi?
- Men malika bo‘laman! – dedi Madina.
- Men ham malika bo‘laman! – kulib tasdiqladi Maftuna.
- Har bir qiz malika bo‘lishni orzu qiladi, – deb javob berdi qariya. – Ammo malika o‘z yurtini, xalqining mehnatini qadrlaydi. O‘sib-ulg‘aygan joyini xor qilmaydi. Har bir insonni, uning kasbini hurmat qilish lozim.
- Kasb? – ajablanib so‘radi Madina. – U nima? U mazalimi? Kattami? Nima uchun u shunday nomlangan?
- Siz kasb nima ekanligini bilmaysizmi? – qariya ajablanib so‘radi. – Ammo siz allaqachon buni bilishingiz kerak. Bu dunyoda hamma o‘z ishini astoydil bajarishi orqali bir-birlariga foyda keltiradi. Shifokor kasallarni davolaydi, o‘qituvchi o‘quvchilarga ta’lim beradi, haydovchi haydovchilik qiladi, sartarosh odamlarni chiroyli soch turmagi bilan xursand qiladi. Obodonlashtirish xodimlari esa yo‘llarni, ko‘chalarni supurib tozalashadi. Bularning barchasi kasblar sanaladi, – dedi va o‘z yo‘lida davom etdi.
- Qizlar esa qariyaning gapini tushunmay, o‘ylanib qolishdi...

(Internet tarmog‘idan olingan)



Kichkinagina,
kulrang, filga
o'xshaydi.



Kim otni ham, filni ham
hech bir qiyinchiliksiz
ko'tarishga, ularning
joyini o'zgartirishga
qodir?

Elektropoyezd sharqqa tomon
80 km/h tezlik bilan
harakatlanmoqda. Shamol
sharqdan g'arbg'a qarab 15
km/h tezlik bilan esmoqda.
Poyezddan chiqayotgan tutun
qaysi tomonga qarab
harakatlanadi?



Hikoya mazmunini so'zlab berishga
tayyorlaning.